

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 30 834,9 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 158,5 foizni tashkil etdi. Ularning 36,4 foizi yoki 11 218,7 mlrd. so`m korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, o`zlashtirilgan boshqa mablag`lar hisobidan 63,6 foizi yoki 19 616,2 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 5,7 foiz punktga kamayib, 14,1 foizni yoki 4 333,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.

**Jami asosiy kapitalga investitsiyalar
hajmi:
30 834,9 mlrd. so`m**

**O`sinh
sur`ati:
158,5 %**



**Markazlashgan:
4 333,5 mlrd. so`m**


**Markazlashmagan:
26 501,4 mlrd. so`m**



Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 30,1 foiz punktga ko'payib, 60,2 foizini yoki 14 764,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag'lari ulushi salmoqli bo'ldi – 9 887,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 32,1 foizini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,3 foizini yoki 1 331,1 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)




Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 6 224,1 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,2 foizini tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 47,3 foiz punktiga kamayish kuzatildi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 9 058,6 mlrd. so`m (29,4 foiz va 204 foiz punktiga ko`payish), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 1 432,1 (483,5 foiz), Respublika budjeti 2 132,1 mlrd. so`m (6,9 foiz va 54,8 foiz punktiga ko`payish), Davlatning maqsadli jamg`armalari 50,8 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 0,2 foiz) hamda tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan esa 718,5 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 2,3 foiz) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	mlrd. so`m	O'sish sur`ati, %da	jamiga nisbatan ulushi,%da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	30834,9	158,5	100
Respublika budjeti	2132,1	181,3	6,9
Davlat maqsadli jamg'armalari	50,8	4215,4	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	718,5	50,3	2,3
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	1432,1	483,5	4,6
Korxonalar mablag'lari	9887,6	118,7	32,1
Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	6224,1	136,2	20,2
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	9058,6	350,1	29,4
Aholi mablag'lari	1331,1	112,6	4,3

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 3,1 marta ko'payish Chilonzor tumanida kuzatildi. Bu asosan "O'zshaharqurilishinvest" korxonasi tomonidan qurilayotgan arzon uylar bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Mirzo Ulug'bek tumanida ham 2,1 marta o'sish kuzatilib, bunday natijaga erishilishiga "METROPOLITEN" unitar korxonasi tomonidan ushbu hududda qurilayotgan yangi metro liniyalarini keltirish mumkin. Yakkasaroy tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 marta o'sishi, asosan ushbu hududda zamonaviy uylarning qurilishi bilan bog'liq.

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)




- Bektemir ● Mirzo Ulug'bek ● Mirobod ● Olmazor ● Sirg'ali
- Uchtepa ● Chilonzor ● Shayxontohur ● Yunusobod ● Yakkasaroy
- Yashnobod

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`zlashtirilgan hajmi bo`yicha hududlar kesimida Sirg'ali tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,3 foizi o`zlashtirildi.

Shuningdek, Shayxontohur tumanining Toshkent shahri bo`yicha investitsiyalar hajmidagi ulushi 13,9 foizini, Chilonzor tumani - keyingi o`rinda 12,6 foizni tashkil etmoqda. Mirobod va Yunusobod tumanlarida ushbu ko`rsatkich mos ravishda 10,4 va 9,9 foizni tashkil etdi.

Uchtepa hamda Bektemir tumanlarida investitsiyalar eng kam o`zlashtirilgan bo`lib, Toshkent shahardagi ulushi 3 foiz va 2 foizni tashkil etdi.




- Qurilish-montaj ishlari
- Mashina, uskuna, inventar
- Boshqalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 12 244,2 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 17 624,0 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 966,7 mlrd. so'm o'zlashtirildi.




Tumanlar kesimida texnologik tarkibi



● Qurilish-montaj ishlari
 ● Mashinalar, uskunalar, inventarlar
 ● Boshqa xarajatlar






Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 13 918,9 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 45,1 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 6 857,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va Respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 22,3 foizini tashkil etdi. Qolgan 32,6 foiz, yani 1 058,1 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (tumanlar kesmida)



Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Chilonzor tumanida kuzatilib, 70,9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Yakkasaroy tumanida 69,5 foiz, Yashnobod tumanida 46,8 foiz va Sirg'ali tumanida 39,0 foizni tashkil etdi. Ushbu ko`rsatkichning eng past darajasi Olmazor tumanida 25,7 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida boshqa faoliyat turlari yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 695,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,0 foizi o'zlashtirilgan. Undan keyingi o'rinda -qayta ishlash sanoati 6 501,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,2 foizi o'zlashtirildi.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan uchta faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 1 019,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,3 foiz);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish 720,7 mlrd. so'm (2,3 foiz);
- rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish 451,4 mlrd. so'm (1,5 foiz).


mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan-to'g'ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
Toshkent sh.	10490,8	7710,7	2780,1	9058,6	7710,7	1347,9
<i>tumanlar:</i>						
Bektemir	202,7	102,1	100,7	202,7	102,1	100,7
Mirzo Ulug'bek	419,8	385,4	34,4	395,9	385,4	10,5
Mirobod	918,3	897,5	20,9	918,3	897,5	20,9
Olmazor	654,3	635,4	18,9	654,3	635,4	18,9
Sirg'ali	227,4	211,7	15,6	227,4	211,7	15,6
Uchtepa	243,5	223,3	20,1	243,4	223,3	20,1
Chilonzor	2338,9	1539,8	799,1	2180,4	1539,8	640,6
Shayxontohur	2811,1	1596,5	1214,6	2058,7	1596,5	462,2
Yunusobod	785,8	292,1	493,7	327,1	292,1	35,0
Yakkasaroy	1452,7	1444,7	8,0	1452,3	1444,7	7,5
Yashnobod	436,3	382,2	54,1	398,1	382,2	15,9



Obyektlarni ishga tushirish

Toshkent shahri bo'yicha ishga tushirilgan uy-joylar, ming kv. m.



- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sirg'ali
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontohur
- Yunusobod
- Yakkaroy
- Yashnobod



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 572,7 ming kv. m, bo`lgan 2422 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Yunusobod tumanida ishga tushirilgan 108 ming kv. m va u shahar bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy

maydonning 18,9 foizini tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Mirzo Ulug'bek va Shayxontohur tumanlari egallagan bo`lib, shahar bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 13,4 foiz va 12,8 foizini tashkil etgan.



**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: E.G'ulomov

Aloqa telefoni: (071) 230-88-18